



20 й “\_\_\_” \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

**Олий таълим муассасалари  
ректорлари ва филиаллар  
директорларига**

Олий таълим муассасаларида ўтказиладиган “Ахборот ва мураббийлик соати” машғулоти Намунавий режасига мувофиқ, 2020/2021-ўқув йилининг бешинчи ҳафтасида ўтказиладиган “Ахборот ва мураббийлик соати” машғулоти материаллари иловага мувофиқ юборилмоқда.

Шу муносабат билан, Сиздан мазкур ҳафта давомида ўтказиладиган “Ахборот ва мураббийлик соати” машғулотларини **“Устоз – шогирд анъаналари 1 октябрь – Устоз ва мураббийлар куни”** (касбга садоқат) мавзусида онлайн тарзда юқори савияда ўтказилишини таъминлашингиз сўралади.

Машғулотлар вазирликнинг 2020 йил 14 сентябрдаги 87-06-684-сонли хатида қайд этилган қуйидаги эслатмалар асосида ташкиллаштирилиши лозим:

“Ахборот ва мураббийлик соати” 4 босқичдан иборат бўлади.

**1-босқич (20 дақиқа).** Ахборотлардан хабардорлик ва янги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан қисқача танишиш. Мазкур масала бўйича матн ҳар бир олий таълим муассасаси томонидан дарс ўтиладиган кундан бир кун аввал тайёрланади.

**2-босқич (20 дақиқа).** Ахборот соати мавзусини ёритиш. Бу босқич иловада берилган мавзу матни асосида ўтказилади.

**3-босқич (20 дақиқа).** Талабалар билан фазилятлардан бири ҳақида суҳбатлашиш ва шу фазилятни кенг тарғиб қилиш. Мазкур фазилятнинг зидди бўлган иллатдан сақланишга чорлаш. Ҳар бир мавзуда келтирилган фазилят маъно-мазмуни ёритилиб, улар ҳақида ҳадис, мақол, ҳикматли сўз, ривоят ва бошқалар келтирилиши лозим.

**4-босқич (20 дақиқа).** Бадий адабиётлар билан танишиш босқичи. Мазкур босқичда албатта шу ой учун мўлжалланган китоб ҳақида қисқача маълумот берилиши лозим.

Дарс ўтиш ҳафтасидаги вазиятга қараб мавзулар олий таълим муассасалари томонидан ўзгартирилиши ёки бойитилиши мумкин.

Илова: 19 бет.

**Ҳурмат билан,  
“Маънавият ва маърифат”  
маркази директори**

**М.Ботиров**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДАГИ ИҚТИСОДИЙ,  
ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ВОҚЕАЛАРГА ДОИР  
МАЪЛУМОТЛАР**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ИДЕНТИФИКАЦИЯ ID-  
КАРТАЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА**

**Ўзбекистон Республикаси Президентининг  
ф а р м о н и**

<http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasida-identifikatsiya-id-kartalarini-zhor-23-09-2020>

**“ТАБИЙ ГАЗ НАЗОРАТИ ВА ҲИСОБИНИНГ  
АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ТИЗИМИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ”  
ЛОЙИҲАСИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА ДОИР ҚЎШИМЧА ЧОРА-  
ТАДБИРЛАР ТЎҒРИСИДА**

**Ўзбекистон Республикаси Президентининг  
қ а р о р и**

<http://uza.uz/oz/documents/tabiiy-gaz-nazorati-va-isobining-avtomatlashirilgan-tizimin-25-09-2020>

**ЎСИМЛИКЛАР КАРАНТИНИ СОҲАСИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР  
НАТИЖАДОРЛИГИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИНДИ**

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 21 сентябрь куни ўсимликлар карантини соҳасидаги ислоҳотлар натижадорлиги таҳлиliga бағишланган йиғилиш ўтказди.

Қишлоқ хўжалиги соҳасидаги ислоҳотлар ва экспорт сиёсатининг асосий мақсади – мамлакатимиз маҳсулотларини жаҳон бозори талабларига мослаштириш. Шунинг учун, ўсимликларни ҳимоя қилиш йўналишини ислоҳ қилиб, Ўсимликлар карантини инспекцияси ташкил этилди. Халқаро стандартларни жорий этиб, экспортга кўмаклашиш, хорижий давлатлар билан битимлар тузиш, ўсимликлар клиникаси ва биологаториялар ташкил қилиш, шунингдек, соҳага илм-фан ютуқларини олиб кириб, малакали кадрлар тайёрлаш бўйича қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Бу борадаги дастлабки қадамлар натижасида 19 давлатга 78 хил маҳсулотни экспорт қилиш учун рухсатномалар олинди.

Сертификация учун ўнлаб қоғоз ҳужжатлар ўрнига ягона электрон тизим жорий этилиб, экспортчиларнинг аризаларини кўриб чиқиш муддати 10 кундан 1 кунга туширилди.

Йиғилишда давлатимиз раҳбари соҳада амалга оширилаётган ишлар бўйича тақдимот билан танишиб, навбатдаги вазифаларни кўрсатиб ўтди.

Янги экспорт бозорлари топиб, маҳсулотларни ҳозирги нархидан 3-4 баравар қимматроқ сотиш имконияти борлиги айтилди. Товарларни халқаро фитосанитария талаби асосида тайёрлаш учун маҳсулот етиштирувчи, кадоқловчи ва экспорт қилувчи ҳар бир корхонага карантин инспекторларини бириктириш бўйича кўрсатма берилди.

Литва, Латвия, Украина, Озарбайжон, Миср, Қатар, Монголия, Афғонистон ва бошқа давлатлар билан музокара ўтказиб, гилос, анор, узум, қовун каби мева-сабзавотлар экспорти учун тадбиркорларга йўл очиб бериш вазифаси белгиланди. “Даладан экспортгача” тамойили бўйича тўлик ишлашни таъминлаш зарурлиги қайд этилди.

Маълумки, келгуси йилларда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспорти ҳажмини 5 миллиард долларга етказиш мўлжалланган. Бунинг учун соҳанинг илмий салоҳиятини ошириш, халқаро сертификация тизимини татбиқ этиш керак. Шу боис давлатимиз раҳбари бу бўйича йирик илмий марказ ташкил этиш таклифини илгари сурди. Фан билан амалиёт уйғунлигини таъминлаш, экспортчи корхоналар мутахассисларига халқаро фитосанитар талабларни тушунтириш бўйича топшириқлар берилди. Шунингдек, Тошкент давлат аграр университети ва унинг филиалларида ҳам халқаро фитосанитария талаблари ўқитилади.

Бугун соҳада хусусий сектор иштирокида ўсимликлар 205 та клиникаси, 690 та биолоборатория мавжуд. Сифат ва рақобатни таъминлаш мақсадида бундай хусусий клиника ва биолобораторияларни кўпайтириш лозимлиги таъкидланди.

## **ПРЕЗИДЕНТ: РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТСИЗ МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ КЕЛАЖАГИ ЙЎҚ**

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 22 сентябрь куни тармоқ ва ҳудудларда рақамли иқтисодиёт ҳамда электрон ҳукуматни жорий қилиш масалалари бўйича видеоселектор **йиғилиши ўтказилди.**

Бутун дунёда рақамли технологиялар барча соҳа ва одамлар ҳаётига жадал кириб бормоқда. Бу йўналишга ўз вақтида киришган давлатлар ривожланиб, аксинча, эскича ишлаганлар тараққиётдан орқада қоляпти.

2020 йил мамлакатимизда “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” деб эълон қилиниб, бу борада катта ишлар бошланди. Хусусан, 28 апрелда давлатимиз раҳбарининг “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори қабул қилинди.

Бугунги видеоселектор йиғилишида шу борада амалга оширилаётган ишлар, жорий йил якуни ва 2021 йил биринчи чорагига мўлжалланган лойиҳалар муҳокама этилди.

– Тармоқ ва ҳудуд раҳбарлари рақамлаштиришсиз натижа, ривожланиш бўлмаслигини тушуниб етиши шарт. Барча даражадаги раҳбарлар бунинг ўзига кундалик вазифа сифатида белгилаб, рақамлаштириш соҳасини алифбосидан бошлаб чуқур ўрганиши керак, – дея таъкидлади Шавкат Мирзиёев.

Жорий йил якуни бўйича ҳар бир тармоқ ва ҳудуд раҳбари рақамли иқтисодиёт соҳасида кескин ўзгариш қилиши зарурлиги айтилди. Президент бу янгиланишларни одамлар ўз ҳаётида, бюрократия ва коррупция камайгани мисолида, давлат хизматларини кўрсатиш тезлашганида сезиши лозимлигини таъкидлади.

Туман ва шаҳар ҳокимлари бир ойда 2-3 кун фақат рақамлаштириш билан шахсан шуғулланиши белгиланди. Уларнинг фаолиятига ҳудудда рақамлаштириш қай даражада йўлга қўйилганига қараб баҳо берилади. Бу соҳада яхши натижа кўрсатган раҳбарларга 30 фоизгача устама жорий қилинади.

Давлатимиз раҳбари ҳар доим аввало аҳоли энг кўп тўқнаш келаётган соҳаларни рақамлаштириш, одамларнинг оғирини енгил қилиш зарурлигини таъкидлайди. Шу талабдан келиб чиқиб, ишчи гуруҳлар томонидан 530 та ҳудудий ва 280 та тармоқ лойиҳаси тайёрланган.

Хусусан, жорий йил якунигача 14 ва келгуси йил биринчи чорагида яна 14 туманда одамлар энг кўп мурожаат қиладиган соғлиқни сақлаш, кадастр, ижтимоий ҳимоя, қишлоқ хўжалиги, таълим йўналишларини рақамлаштириш бўйича 239 та лойиҳа амалга оширилади.

Масалан, “Электрон поликлиника” тизимини жорий қилиш орқали қоғоз ҳужжатлар 40 фоизга, навбат кутиш 60 фоизга қисқаради. Бунинг учун марказий шифохона ва поликлиникаларни тўлиқ рақамлаштириш лозим.

Бугунги кунда Тошкент шаҳрида электрон тиббиёт картаси, электрон шифохона ҳамда шошилиш тиббий ёрдам тизимлари жорий этилмоқда. Ушбу дастурлар келгуси йили Андижон, Наманган, Фарғона, Жиззах, Сирдарё, Сурхондарё ва Хоразм вилоятларида йўлга қўйилиши айтилди. Шунингдек, “электрон кундалик”, “электрон дарслик”, “ўқитувчиларни баҳолаш” тизимларини барча ҳудудларда жорий этиш зарурлиги таъкидланди.

Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлигига жорий йилда белгиланган 14 туманда ижтимоий муассасаларни тўлиқ рақамлаштириб, қолган ҳудудлар учун намуна қилиш бўйича кўрсатма берилди.

Рақамлаштириш иқтисодиёт тармоқларида тежамкорлик ва самарадорликни таъминлайди. Масалан, Тойлоқ ва Оқдарё туманларидаги шағал кавлаб олиш карьериди машиналарнинг юк ҳажмини назорат қилиш тизими йўлга қўйилгани натижасида ойлик тушум 3 миллиард сўмдан 8 миллиард сўмга ошган.

Давлат солиқ кўмитасига норуда карьерлардан фойдаланишда “яширин иқтисодиёт”га барҳам бериш, бунинг учун ер қаъри кавланиши, юк ҳажми ва машиналар ҳаракатини назорат қилувчи электрон тизимларни ишга тушириш вазифаси юклатилди.

Йиғилишда саноат тармоқларида амалга ошириладиган лойиҳаларга алоҳида эътибор қаратилди.

– Рақамли иқтисодиётсиз мамлакат иқтисодиётининг келажаги йўқ, – дея таъкидлади Президент.

Келгуси уч йилда нефть, газ ва энергетика соҳасида 18 та, металлургия бўйича 12 та, автосаноат тизимида 9 та, кимё саноатида 8 та, тоғ-кон геология тармоғида 4 та рақамлаштириш лойиҳаси режалаштирилган.

Мисол учун, Муборак ва Шўртан нефть-газ корхоналарида автоматлашган диспетчерлик хизмати жорий этилгани туфайли йилига 50 миллион куб метр газ ва 650 минг киловатт-соат электр энергиясини иқтисод қилишга замин яратилди. Асакадаги автомобиль заводида логистика, харидлар, хомашё ва бутловчи қисмлар ҳаракатини рақамлаштириш орқали 41 миллион доллар тежаш мумкин. Олмалик тоғ-кон металлургия комбинатидаги “Ёшлик-1” ва “Қолмоққир” конларида транспорт комплекси автоматлашган бошқарув тизимини жорий қилиш ҳам шундай самарали лойиҳалардан. Бу орқали йилига 28 миллиард сўмлик маблағ тежаллади.

Президент барча лойиҳаларга масъулларни белгилаб, уларни муддатида, сифатли бажариш, халқаро молия ташкилотлари маблағларини йўналтириш бўйича кўрсатмалар берди.

Бош вазир ва унинг ўринбосарларига ўн кун муддатда ўзлари масъул бўлган соҳа ва тармоқларни рақамлаштириш бўйича жорий ва келгуси йил учун режалар ишлаб чиқиш юклатилди.

Рақамли иқтисодиётни жорий этиш ва унумли ишлатиш, албатта, мутахассисларга боғлиқ. Шу боис кадрлар тайёрлашга ҳар томонлама аҳамият берилмоқда. Ўтган йили Тошкент шаҳрида Дастурий маҳсулотлар ва ахборот технологиялари парки бунёд этилган эди. Андижон ва Марғилон шаҳарларида унинг филиллари очилди. Пойтахтимизда Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ахборот технологиялари мактаби ҳудудида яна бир филиал биноси қурилмоқда. Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларда ахборот технологияларини чуқур ўқитишга ихтисослаштирилган 205 та мактаб ташкил этилиши режалаштирилган.

Халқ таълими вазирилиги ҳамда Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлигига жорий йилда 14 та, келгуси йилда 82 та ихтисослаштирилган мактаб ташкил этиш вазифаси кўйилди.

Тошкент ахборот технологиялари университети ва IT-паркларда ахборот технологиялари ўқитувчиларини тайёрлаш ҳамда уларни сертификатлашнинг миллий тизимини жорий қилиш муҳимлиги қайд этилди. Малака сертификати олган ўқитувчиларга ҳар ойда қўшимча 50 фоиз устама тўланади. Шунингдек, ўқувчиси “Бир миллион дастурчи” курсини муваффақиятли якунлаган мактаб ўқитувчиларини мукофотлаш йўлга кўйилди.

– Бугун кўриб чиқилаётган масала ривожланиш ва халқимиз ҳаётини яхшилаш борасидаги ишларимизнинг энг катта замини, – деди Президент. – Буни барча ҳудуд ва тармоқ раҳбарлари тушуниб, дунёқарашини ўзгартириб, айтилган вазифалар ижросига қаттиқ киришишлари керак.

Бош вазирга муҳокама қилинган чора-тадбирлар ижросини соҳалар ва ҳудудлар кесимида назорат қилиш топширилди.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ ШАВКАТ  
МИРЗИЁЕВНИНГ БИРЛАШГАН МИЛЛАТЛАР ТАШКИЛОТИ БОШ  
АССАМБЛЕЯСИНИНГ 75-СЕССИЯСИДАГИ НУТҚИ**

Муҳтарам Раис Вўлкан Бозкир жаноблари!

Муҳтарам Бош котиб Антониу Гутерриш жаноблари!

Ҳурматли делегациялар раҳбарлари!

Хонимлар ва жаноблар!

Бош Ассамблеянинг етмиш бешинчи сессияси Бирлашган Миллатлар Ташкилоти тарихида биринчи марта бутунлай янги форматда – коронавирус пандемияси туфайли онлайн мулоқот режимида бўлиб ўтмоқда.

Бундай глобал фалокат сайёрамизда сўнгги юз йилда кузатилмаган эди. Бу офат бутун инсониятнинг заиф жиҳатларини яққол кўрсатди. Ҳозирги таҳликали ва мураккаб вазият ер юзидаги барча давлатлар ва халқлар ўзаро боғлиқ эканини, ўртамизда мунтазам мулоқот, ишонч ва яқин ҳамкорлик ўта муҳимлигини исботлади.

Шу йўлда барчамиз ҳукуматлар, парламентлар ва фуқаролик жамиятларининг ўзаро саъй-ҳаракатларини бирлаштириш, умумий масъулият тамойилларини мустаҳкамлаш, халқаро шерикликни мувофиқ ҳолда ривожлантириш, Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг мақоми ва салоҳиятини ошириш, ваколатларини кенгайтириш лозимлигини чуқур англадик.

Мақсадимиз – ҳар бир инсоннинг асосий ҳуқуқ ва эркинликларини, саломатлиги ва фаровонлигини таъминлайдиган адолатли глобал тизимни биргаликда яратишдир.

Бу борада биз Бирлашган Миллатлар Ташкилоти шафелигида **Пандемиялар даврида давлатларнинг ихтиёрий мажбуриятлари тўғрисидаги халқаро кодексни** ишлаб чиқишни таклиф этамиз. Ушбу ҳужжатда ҳар бир давлатнинг ўз фуқаролари ва халқаро ҳамкорлари олдидаги мажбуриятлари акс этиши лозим.

Ҳурматли хонимлар ва жаноблар!

Биз Ўзбекистонда COVID-19 қайд этилган дастлабки кунлардан бошлаб барча саъй-ҳаракат ва ресурсларимизни бу хавfli касалликни жиловлаш ва энг асосийси – одамлар ҳаётини сақлаб қолишга қаратдик.

Пандемиянинг салбий оқибатларини юмшатиш учун ижтимоий ҳимоя ва соғлиқни сақлаш тизимлари кескин кучайтирилмоқда, аҳолига, иқтисодиёт тармоқлари ва бизнесга манзилли кўмак кўрсатилмоқда. Шу мақсадда махсус жамғармалар тузилди.

Фурсатдан фойдаланиб, синовли дамларда бизга беғараз ёрдам кўрсатган барча дўст ва ҳамкорларимизга чуқур миннатдорлик изҳор этаман.

Биз халқаро ҳамжамиятнинг пандемияга қарши самарали курашиш бўйича барча ҳаракатларини, жумладан, зарур дори-дармон ҳамда вакциналар ишлаб чиқиш ва улардан кенг фойдаланишга қаратилган ташаббусларини қўллаб-қувватлаймиз.

Шунингдек, Бош котиб Антониу Гутерриш жанобларининг бугунги инқирозли вазиятда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг долзарб

муаммоларига бағишланган саммитни ўтказиш бўйича таклифини маъқуллаймиз.

Ўрнатилган Бош Ассамблея сессияси иштирокчилари!

Бундан уч йил муқаддам мен Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг олий минбаридан Ўзбекистоннинг туб ислохотларни амалга ошириш бўйича қарори қатъий эканини айтган эдим.

Жамиятни сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий модернизация қилиш бўйича кенг қўламли чора-тадбирларимиз натижасида янги Ўзбекистон шаклланмоқда. Бугунги кунда мамлакатимиздаги демократик ўзгаришлар ортга қайтмайдиган тус олди.

Ўтган йили Парламентга ўтказилган сайловлар аҳоли ва партияларнинг сиёсий фаоллиги, фуқаролик жамияти институтларининг роли, оммавий ахборот воситаларининг таъсири ошганини намойиш этди.

Биз учун гендер тенглик сиёсати устувор масалага айланди. Хотин-қизларнинг давлат бошқарувидаги ўрни тобора кучаймоқда. Янги Парламентимизда аёл депутатлар сони икки баробарга кўпайди.

Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ҳолат ҳам бутунлай ўзгарди. Мажбурий ва болалар меҳнати тўлиқ тугатилди. Инсон ҳуқуқлари бўйича Миллий стратегия қабул қилинди.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг фуқаролиги бўлмаган инсонлар сонини камайтиришга қаратилган чақириғига жавобан шу йилнинг ўзида 50 минг юртдошимизга Ўзбекистон фуқаролиги берилди.

Мамлакатимизда диний эркинлик борасида ҳам вазият кескин яхшиланди. Миллатлараро тотувлик ва динлараро бағрикенгликни янада мустаҳкамлаш биз учун доимий муҳим вазифадир.

Судларнинг чинакам мустақиллиги ва қонун устуворлигини таъминлашга йўналтирилган кенг қамровли ислохотлар изчил амалга оширилмоқда.

Коррупцияга қарши муросасиз кураш янги босқичга кўтарилди.

Бу борада муҳим қонун ҳужжатлари қабул қилиниб, мустақил тузилма – Коррупцияга қарши курашиш агентлиги ташкил этилди.

Мамлакатимизда иқтисодий ислохотлар жадал давом эттирилмоқда. Биз биринчи марта камбағалликни камайтириш ҳақидаги қатъий қароримизни очиқ эълон қилдик. Бунга тадбиркорликни ривожлантириш ва кўшимча иш ўринлари яратиш, инвестиция ва бизнес муҳитини яхшилаш ҳамда замонавий инфратузилмани барпо этиш, одамларни янги касб-хунарларга ўргатиш ва аҳолига манзилли ижтимоий ёрдам кўрсатиш орқали эришмоқдамиз.

Мамлакатимиз аҳолисининг ярмидан кўпини ёшлар ташкил этади. Республикаимизда ҳар бир йигит-қизнинг жамиятда муносиб ўрин эгаллаши ва ўз салоҳиятини намоеън этиши учун улкан ишлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистонда Ёшлар парламентлари, Ёшлар ишлари агентлиги фаолият кўрсатмоқда.

Август ойида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти шафелигида ёшлар ҳуқуқларига бағишланган Самарқанд халқаро форуми муваффақиятли ўтказилди.

Фурсатдан фойдаланиб, яна бир бор **Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Бирлашган Миллатлар Ташкилоти конвенциясини** қабул қилиш бўйича Ўзбекистон ташаббусини қўллаб-қувватлашга чақираман.

Бундан ташқари, **Барқарор таракқиёт мақсадларига эришиш ва инсон ҳуқуқларини таъминлашда парламентлар родини ошириш тўғрисидаги Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг махсус резолюциясини** қабул қилишни таклиф этамиз.

Ҳурматли дўстлар!

Ҳозирги вақтда Марказий Осиё минтақасида туб ўзгаришлар юз бермоқда. Биз минтақа давлатлари ўртасида яхши қўшничилик ва ўзаро ишонч, дўстлик ва ҳурмат муҳитини яратишга эришдик.

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида илгари сурилган ташаббусга асосан мунтазам ўтказилаётган Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг Маслаҳат учрашувлари умумий ютуғимиз бўлди. Охириги тўрт йилда Ўзбекистоннинг қўшни давлатлар билан ўзаро савдо ҳажми салкам беш баробарга ўсди.

Мамлакатларимиз ушбу синовли кунларда бир-бирини ёлғиз колдирмасдан, ўзаро елкадош бўлдилар.

Бугун Марказий Осиё давлатлари олдида муҳим стратегик вазифа турибди. У ҳам бўлса, минтақамизнинг глобал иқтисодий, транспорт ва транзит йўлақларига чуқур интеграциясини таъминлашдир.

Шу муносабат билан Бирлашган Миллатлар Ташкилоти шафелигида **Транспорт-коммуникация алоқаларини ривожлантириш минтақавий марказини очишни** таклиф этамиз.

Бугунги кунда Марказий Осиёда хавфсизликни таъминлаш соҳасида ҳам самарали ҳамкорлик олиб борилмоқда. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Глобал антитеррор стратегияси муваффақиятли амалга оширилмоқда.

Биз ушбу стратегия доирасидаги **Минтақавий қўшма режанинг 10 йиллик натижалари ва келгуси истиқболларига бағишланган халқаро конференцияни ўтказиш** тарафдоримиз.

Маълумки, минтақамизнинг кўҳна ва бой маданий мероси глобал аҳамиятга эга. Биз 2021 йилда ЮНЕСКО билан ҳамкорликда қадимий Хива шаҳрида **“Марказий Осиё жаҳон цивилизациялари чорраҳасида”** деган мавзуда халқаро форумни ўтказишга тайёрмиз.

Ҳурматли сессия иштирокчилари!

Биз Афғонистонни Марказий Осиёнинг ажралмас қисми сифатида қабул қиламиз. 2018 йил март ойида ўтказилган Афғонистон бўйича олий даражадаги Тошкент конференцияси афғон муаммосини ечиш учун халқаро ҳамжамият саъй-ҳаракатларини сафарбар этишда янги босқич бўлди.

Биз жорий йилнинг сентябрь ойида Доха шаҳрида афғон сиёсий кучлари ўртасида бошланган тинчлик музокараларини тўла қўллаб-қувватлаймиз. Бу музокаралар жафокаш афғон заминида тинчлик ва барқарорлик ўрнатишига умид қиламиз.

Минтақада иқтисодий интеграция жараёнларига Афғонистонни кенг жалб этиш мақсадида “Сурхон – Пули Хумри” электр узатиш тармоғини,



Мозори Шарифдан Ҳинд океани портларига чиқадиган темир йўл қурилиши каби йирик инфратузилма лойиҳаларини амалга оширишга киришдик.

Фикримизча, Афғонистонда тинчлик ва барқарорлик ўрнатиш масалалари Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг доимий эътибор марказида бўлиб қолиши зарур.

Фақат биргаликда ва яқин ҳамкорлик орқали биз афғон халқининг эзгу орзу-умидларини рўёбга чиқаришимиз мумкин. Бу борада “Бекарор ва вайронкор вазиятдан – тинчлик ва бунёдкорлик сари” деган тамойил асосида иш олиб бориш муҳимдир. Шу боисдан **Бирлашган Миллатлар Ташкилоти ҳузурида афғон халқининг дарду ташвишини тинглайдиган, доимий фаолият кўрсатадиган қўмита ташкил этиш лозим.** Ушбу қўмитанинг асосий вазифаси Афғонистоннинг иқтисодий ва ижтимоий ривожланишига кўмак беришдан иборат бўлиши зарур.

Ҳурматли давлат ва ҳукумат раҳбарлари!

Давримизнинг ўткир муаммоларидан яна бири – глобал иқлим ўзгаришларидир. Бугунги кунда ҳар бир мамлакат бу жараённинг салбий таъсирини ҳис этмоқда. Минг афсуски, бундай ўзгаришлар Марказий Осиё тараққиётига ҳам катта хавф туғдирмоқда.

Эътиборингизни яна бир бор Орол денгизи қуришининг ҳалокатли оқибатларига қаратмоқчиман. Оролбўйи ҳудуди экологик фожианинг марказига айланди. Биз мавжуд аҳволни яхшилаш учун бу ерда икки миллион гектар янги ўсимлик майдонлари ва дарахтзорлар яратиш, тупроқ қатламини шакллантириш бўйича улкан ишларни амалга оширмоқдамиз.

Мамлакатимиз ташаббуси билан Оролбўйи минтақаси учун Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг инсон хавфсизлиги бўйича кўп томонлама шериклик траст фонди тузилди. Умид қиламизки, ушбу фонд оғир экологик ҳудудда яшаётган аҳолига амалий ёрдам кўрсатиш учун халқаро ҳамжамиятнинг таянч платформаси бўлиб хизмат қилади.

**Биз Оролбўйи минтақасини экологик инновация ва технологиялар ҳудуди, деб эълон қилиш ҳақида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти**

**Бош Ассамблеясининг махсус резолюциясини қабул қилишни таклиф этамиз. Ушбу муҳим ҳужжат тасдиқланган санани эса Халқаро экологик тизимларни ҳимоя қилиш ва тиклаш кўни сифатида нишонлаш мақсадга мувофиқ бўларди.**

Ҳурматли хонимлар ва жаноблар!

Сўзимнинг якунида яна бир фикрни таъкидлашни истардим. Жаҳоннинг турли нуқталарида нотинчлик сақланиб қолаётгани, зиддият ва зўравонликлар ортиб бораётгани, экологик офатлар ва бошқа замонавий хатарлар қашшоқлик ва камбағалликнинг глобал муаммоларини кучайтирмоқда.

Бу муаммолар айниқса пандемия шароитида кескин тус олмоқда. Тобора ташвишли оҳанг касб этаётган қашшоқликнинг овози бутун дунё ҳамжамиятини, барчамизни безовта қилиши зарур.

**Шу муносабат билан қашшоқликни тугатиш ва камбағалликка қарши курашишни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси навбатдаги сессиясининг асосий мавзуларидан бири**

**сифатида белгилаш ҳамда ушбу масалаларга бағишланган глобал саммитни ўтказишни таклиф этамиз.**

**Қадрли дўстлар!**

Барчамизга равшанки, пандемиядан кейинги дунёнинг ижтимоий-иқтисодий манзараси бутунлай бошқача тус олади.

Биз хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидаги умумий хатарларга қарши янги ёндашувлар асосида ва яқин ҳамкорликда ишлашимиз зарур.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг мувофиқлаштирувчи халқаро тузилма сифатидаги марказий ўрнини янада кучайтириш лозим.

Ўзбекистон жаҳоннинг барча мамлакатлари билан кенг кўламли ва ўзаро манфаатли шерикликни, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти ва унинг институтлари билан амалий мулоқотни ривожлантириш учун доимо тайёр.

Эътиборингиз учун раҳмат.

## **ТУМАН ВА ШАҲАРЛАРДАГИ ТАДБИРКОРЛИК МУҲИТИ ТАНҚИДИЙ ТАҲЛИЛ ҚИЛИНДИ**

Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 24 сентябрь куни ҳудудларда тадбиркорликни ривожлантириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар муҳокамаси юзасидан видеоселектор **йиғилиши ўтказилди.**

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик – иқтисодиётнинг ўсиш нуқталаридан бири, аҳоли бандлигини таъминлашнинг катта манбаи. Шу боис мамлакатимизда бу соҳани ривожлантиришга алоҳида аҳамият қаратилмоқда. Президентнинг фармон ва қарорлари қабул қилиниб, барча зарур шароитлар яратиб берилди. Энди ҳокимлар ва сектор раҳбарлари ишни тўғри ташкил этиб, янги корхоналар очилиши, уларнинг яшовчанлиги, маҳсулотлари ҳажми, яратилган иш ўринлари бўйича натижа қилиши керак.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 1 майдаги қарорига асосан, ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни рейтинг баҳолаш тизими жорий этилган эди. Шунга мувофиқ, биринчи марта туман ва шаҳарлардаги иқтисодий кўрсаткичлар, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш муҳити, инфратузилма ва мавжуд ресурслардан фойдаланиш даражаси ўрганилди. Таҳлиллар асосида улардаги тадбиркорлик ривожини ҳолати “яхши”, “ўрта” ва “қониқарсиз” ҳудудларга ажратилди. Хусусан, 48 та туман ва шаҳардаги ҳолат “яхши”, 119 тасида “ўрта” ҳамда 33 тасида “қониқарсиз” деб топилган.

Видеоселектор йиғилишида ушбу таҳлиллар асосида жойлардаги муаммоларни ҳал этиш, кўрсаткичлари нисбатан паст бўлган ҳудудларга кўмаклашиш чоралари муҳокама қилинди.

Иқтисодий комплексга кирувчи вазирлик ва муассасалар “тадбиркорга хизмат қилувчи” ташкилотга айланиши зарурлиги таъкидланди. “Қониқарсиз” деб баҳоланган туман ва шаҳарларнинг салоҳиятини юзага чиқариш, “яхши” ҳудудларнинг тажрибасини оммалаштириш муҳимлиги қайд этилди.

Мисол учун, Самарқанд туманида ҳудудий саноат маҳсулотлари ҳажми 1,1 триллион сўмни ташкил этиб, аҳоли жон бошига 4,5 миллион сўмдан тўғри келган. Бу Самарқанд вилоятидаги энг юқори кўрсаткичдир.

Шунингдек, 508 та тадбиркорлик субъекти ташкил этилиб, янги иш ўринларининг 71 фоизи кичик бизнесда очилган. Маҳаллий бюджет тушумлари сўнги уч йилда 2 баравар ортган.

Шунингдек, Қамашу туманида сўнги уч йилда 802 та янги тадбиркорлик субъекти ташкил этилиб, ишламаётган 132 та корхона қайта тикланган. Экспорт ҳажми ўтган йилгига нисбатан 1,5 баробар ошган.

Аксинча, Нукус, Балиқчи, Бекобод, Ховос, Бахмал, Мирзачўл, Янгиқўрғон, Шовот, Касби, Қумқўрғон, Учтепа каби туманлардаги ахвол кониқарсиз. Аслида уларда ҳам етарлича салоҳият ва инфратузилма бор.

Масалан, Қумқўрғон тумани тадбиркорлик кўрсаткичлари бўйича Сурхондарё вилоятида энг охириги ўринлардан бирида. Лекин у ерда 124 минг гектар яйлов ва 48 минг гектар оборотдан чиққан ер бор. Улардан самарали фойдаланиш бўйича лойиҳалар ишлаб чиқилмаган.

Бекобод туманида ҳам кичик бизнес улуши республикадаги энг сўнги ўринлардан бирида. Туманда йилига 10 минг тонна пахта, 100 минг тонна дон етиштирилса-да, қайта ишланмайди.

Мутасаддиларга “кониқарсиз” деб баҳоланган туманларда муҳандислик коммуникацияларини яхшилаб, кичик саноат зонаси ташкил этиш, яйловларда чорвачилик, қоракўлчилик, йилқичиликни ривожлантириш, чегараолди савдо ва хизматларни кенгайтириш бўйича топшириқлар берилди.

Яхши кўрсаткичларга эришган туман ва шаҳар ҳокимлари ҳамда уларнинг ўринбосарлари маошига 30 фоиз устама тайинланиб, ахвол кониқарсиз бўлган ҳудудлар раҳбарларига жарима қўлланиши айтиб ўтилди.

– Одамларимиз турмушини яхшилашга ҳаракат қилмаган раҳбар бир кун ҳам ишламайди, – деди Шавкат Мирзиёев.

“Қониқарсиз” ҳамда “ўрта” деб баҳоланган туман ва шаҳарларда инқирозга қарши бошқарув тизими жорий этилиши белгиланди. Яъни, уларга раҳбарлик қилиш истагини билдирган ҳар қандай талабгор ҳудудни ривожлантириш дастурини маҳаллий кенгашларда ҳимоя қилиши мумкин. Халқ вакиллари ишонтира олган салоҳиятли кишилар бутун жамоаси билан туманга раҳбар этиб тайинланади.

– Ҳокимларни халқ сайлаши керак. Шу кунларга барибир келамиз, – дея таъкидлади Президент.

Йиғилишда янги корхоналар ташкил этиш, борларини қўллаб-қувватлаш масалалари кўриб чиқилди.

Жорий йилнинг 8 ойида 60 мингдан зиёд янги кичик бизнес субъектлари фаолият бошлади. Уларнинг ҳар бири ўртача 38 миллион сўм солиқ тушумини таъминлаб, камида 2 тадан иш ўрни яратмоқда. Лекин 31 мингдан зиёд корхона фаолияти ҳалигача тикланмаган. Ўз бизнесини очиш ҳаракатидаги инсонлар ҳам жуда кўп.

Савдо-саноат палатаси раҳбарлари ва Бизнес-омбудсман жойларга чиқиб, тадбиркорлик фаолиятини бошлашга ҳалақит бераётган муаммоларни ҳал этиши, айниқса, ёшлар ва хотин-қизларнинг ташаббусларини рўёбга чиқаришга кўмаклашиши кераклиги таъкидланди.

“Темир дафтар”га киритилган оилаларнинг тадбиркорлик лойиҳаларини молиялаштириш, банклар томонидан маблағ берилган, лекин хомашё, энергия ресурси ёки логистика каби сабабларга кўра тўхтаб қолган лойиҳаларни ишга тушириш бўйича топшириқлар берилди.

Тижорат банклари тадбиркорларнинг бизнесдаги натижаларига қараб уларга “имтиёзли хизматлар пакети”ни таклиф қилиши муҳимлиги айtilди.

Маълумки, кичик бизнес ва маҳаллий ресурс солиқлари тўлиқ ҳудудлар ихтиёрида қолдирилмоқда. Яъни, ҳудудларнинг бюджет барқарорлиги, ривожланиши тадбиркорлик фаолияти билан бевосита боғлиқ.

Масалан, Конимех туманида маҳаллий бюджетга солиқ тушумлари жорий йилнинг 8 ойида ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 141 фоизга ошган. Пандемия даврида молиявий қийинчиликка дуч келган 20 та корхонага солиқ таътили берилиши натижасида 100 та иш ўрни сақлаб қолинган.

Давлат солиқ қўмитасига барча вилоятларда ишни шундай ташкил этиб, маҳаллий бюджетларни мустаҳкамлаш юзасидан кўрсатма берилди.

Йиғилишда бу йил кутилаётган бюджет тақчиллигини имкон қадар қисқартириш учун қўшимча тушумларни таъминлаш чора-тадбирлари муҳокама қилинди. Ҳудудларнинг солиқ салоҳиятини таҳлил қилиб, қўшимча даромадларни аниқлаш, бюджет ташкилотларининг пуллик хизматлардан даромадларини кўпайтириш ва бино-иншоотларидан самарали фойдаланиш муҳимлиги қайд этилди.

Охириги 4 йилда бизнесни ривожлантириш учун яратилган имкониятлар натижасида кўплаб кичик корхоналар фаолияти кенгайган. Давлатимиз раҳбари бундай интилишларни рағбатлантириш, корхоналарни йириклашишга ундайдиган қулай муҳит яратиш зарурлигини таъкидлади.

Шу мақсадда, тадбиркорлик субъектларига берилаётган имтиёзларни табақалаштириш керак. Ўрта бизнес тоифасига кириши мумкин бўлган корхонани аниқлаб, Тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш жамғармасидан мақсадли маблағлар ажратиш, маҳсулотини сертификатлаш, илм ва инновация харажатларини қисман қоплаб бериш каби чоралар орқали уларга кўмаклашиш муҳимлиги айtilди.

## **ЎЗБЕКИСТОН-ХИТОЙ ҲУКУМАТЛАРАРО ҲАМКОРЛИК ҚЎМИТАСИ ҲАМРАИСЛАРИ ТЕЛЕФОН ОРҚАЛИ МУЛОҚОТ ҚИЛДИЛАР**

Ўзбекистон-Хитой Ҳукуматлараро ҳамкорлик қўмитаси ҳамраислари – Ўзбекистон Республикаси Бош вазири Абдулла Арипов ва Хитой Коммунистик партияси Марказий қўмитаси сиёсий бюроси аъзоси, ХКП МК сиёсий-ҳуқуқий комиссияси котиби Го Шэнкунь ўртасида телефон орқали мулоқот бўлиб ўтди.

Суҳбат аввалида Ўзбекистон ҳукумати раҳбари Го Шэнкунни яқинлашиб келаётган миллий байрам – Хитой Халқ Республикаси ташкил топганининг 71 йиллиги муносабати билан самимий табриклади ва Ўзбекистон-Хитой муносабатларининг янги суръатлар билан изчил ривожланиб, икки томонлама ҳамкорликни янада мустаҳкамлашга хизмат

қилишига ишонч билдирди ҳамда Хитой томонидан пандемия даврида кўрсатилган инсонпарварлик ёрдами учун самимий миннатдорлик изҳор этди.

Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев ва Хитой Халқ Республикаси Раиси Си Цзиньпин ўртасида қарор топган самимий ҳамда яқин дўстона муносабатлар ҳамкорлик алоқаларини ҳар жиҳатдан мустаҳкамлашда муҳим омил бўлиб хизмат қилаётгани таъкидланди.

Ўзбекистон-Хитой Ҳукуматлараро ҳамкорлик қўмитаси ҳамраислари суҳбат чоғида савдо-иқтисодий, инвестициявий, молия, энергетика, қишлоқ хўжалиги, транспорт-коммуникация, маданий-гуманитар ва бошқа муҳим йўналишлардаги ҳамкорликнинг бугунги ҳолати ва истиқболларини атрафлича муҳокама қилди.

Го Шэнкунь мазкур масалаларда Хитой томони Ўзбекистон билан ҳамкорлик алоқаларини янги мазмун билан бойитишга тайёр эканини маълум қилди. Рақамли иқтисодиёт, ахборот коммуникациялари, тиббиёт, агротехнологиялар каби соҳалардаги ҳамкорликни жадал ривожлантириш юзасидан таклиф ва мулоҳазаларини билдирди.

Суҳбат якунида томонлар Ўзбекистон-Хитой Ҳукуматлараро ҳамкорлик қўмитасининг навбатдаги Тошкент шаҳрида бўлиб ўтадиган 6-йиғилишига тайёргарлик масалалари келишиб олинди.

## **УШБУ ҲАФТА “АХБОРОТ ВА МУРАББИЙЛИК СОАТИ” МАШҒУЛОТЛАРИНИ ЎТКАЗИШ УЧУН ТАЙЁРЛАНГАН ЁРДАМЧИ МАТЕРИАЛЛАР**

### **MAVZU: USTOZ-SHOGIRD AN’ANALARI. 1-OKTABR – USTOZ VA MURABBIYLAR KUNI (KASBGA SADOQAT)**

Qadimda milliy an’ana bo’yicha shogirdlikning o’ziga xos odob-axloq qoidalari bo’lgan. Chunonchi, Husayn Voiz Koshifiy bunday deydi: «Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so’rasalar, yettita degin. Avvalo, o’z ishiga yaxshi munosabatda bo’lish, ya’ni o’z kasbini sevish; o’z kasbiga e’tiqod qo’yish va unga ishonish; ustoz oldida haqsevar bo’lish, o’z nojo’ya odatlarini tark etish; ko’rish lozim bo’lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish; eshitish mumkin bo’lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik; barcha noloyiq ishlardan qo’l tortish; ustoziga zid bo’lgan kishilar bilan muomala qilmaslik. Agar shogirdlikning asoslari nechta deb so’rasalar, oltita degin: rostgo’ylik, vafodorlik, mas’uliyatlilik, nasihatni quloqqa olish, ozor bermaslik, sir saqlash. Shogirdlikning eng yaxshi xislati nima deb so’rasalar, poklik deb javob beriladi. Shogirdlikning noyob gavhari nima deb so’rasalar, hamkasb do’stlarini xushnud etish deb javob bergin» O’zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, o’qitish va tarbiyalash mazmuniga milliy qadriyat va an’analarni singdirish, ularni ilg’or g’oyalar bilan boyitishga yo’naltirilgan harakat keng ko’lamda amalga oshirilmoqda.

Istiqlol sharofati bilan ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratib kelingan bebaho ma’naviy meros, unutilgan qadriyatlarni qayta tiklash, milliy

o'zlikni anglash masalasi hukumat darajasiga ko'tarildi. Milliy an'ana va qadriyatlar qaytadan mustahkam qaror topishi natijasida o'qituvchi-ustoz faoliyati bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda nafaqat fan asoslari yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, balki auditoriyadan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning iqtidori, qiziqish va intilishlarini inobatga olgan holda ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish, ma'naviyatini yuksaltirish hamda kasbga yo'naltirishda «ustoz-shogird» an'analariidan foydalanish ehtiyojga aylanib bormoqda.

«Ustoz-shogird» an'analari — yoshlarda kasbiy mahoratni tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirish, izlanish, ijod qilish, bir so'z bilan aytganda har tomonlama etuk shaxsni shakllantirishda o'ziga xos tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mavjudligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Yana bir xarakterli jihati shundaki, unda talabaning o'z imkoniyatlariga ishonch, vaziyatni to'g'ri baholash hamda irodaviy sifatlar shakllanadi, qolaversa talabaning ijtimoiy faolligi ustozlar nazoratida bo'ladi.

Ustozning eng buyuk burchi — yurt ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan, aql-idrokli, fahm-farosatli va qobiliyatli shogirdlar tayyorlashdan iborat. Ustoz yaxshi shogird tayyorlash uchun avvalo uning o'zi kasbiy salohiyatli, ma'naviy barkamol, keng dunyoqarash va sog'lom fikrga ega bo'lmog'i lozim.

Qadimdan «ustoz-shogird»lik an'analariida ustoz nafaqat shogirdiga yo'l-yo'riq, ko'rsatma beribgina qolmay, o'z navbatida ularni mustaqil faoliyatga tayyorlagan hamda o'zidan keyin ish-tajribani, bilim va mahoratni avloddan-avlodga o'tishiga imkoniyat yaratgan.

«Ustoz-shogird» munosabatlari muayyan dastur, reja asosida olib borilishi maqsadga muvofiq. Bu borada shogird bilan olib boriladigan ish shakllarida ustoz quyidagilarga rioya qilishi lozim:

- shogirdga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda zamon talablariga, jamiyat qonun-qoidalariga mos bilimlar bilan qurollantirish;
- yagona maqsad sari intilishga, ishning natijasini ko'ra bilishga o'rgatish;
- shogirdning ruhiyati, ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsata olish va o'z o'rnida talabchan bo'lish;
- o'z-o'zini va o'zgalarni hurmat qilishga odatlantirish;
- muvaffaqiyatni ko'zlagan holda olg'a odimlash;
- ijobiy qaytuvchan aloqani o'rnatish;
- tarbiyada turli xil usullardan foydalanishga e'tibor qaratish;
- tarbiya jarayonida ustozning har tomonlama: ma'naviy, axloqiy, kasbiy jihatdan namuna bo'lishi;
- burch, mas'uliyat, javobgarlik hissini shakllantirib borish va hokazo.

Ustoz-shogird an'analariida quyidagi pedagogik tamoyillar muhim o'rin tutadi:

- onglilik va faollik, ya'ni egallayotgan u yoki bu faoliyatning o'ziga xos jihatlari, mohiyatini ongli tarzda to'liq anglab etish, uning istiqboli va ravnaqida faollik bilan harakat qilish;
- ilm-fanning sir-asrorlarini egallashda puxtalik;
- ta'lim-tarbiyaning turmush, hayot bilan chambarchas bog'liqligini inobatga olish;
- mutaqillikka, ijodiy izlanishga yo'naltirib borishda nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog'liqligini hisobga olish;
- o'qitish, tarbiyalash mazmuni va shogirdlik bosqichlari izchillik bilan belgilab qo'yilgan aniq mantiqiy tartibga ega bo'lishi;
- shogirdning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

Demak, oliy ta'lim tizimida «ustoz-shogird» an'analaridan foydalanish ko'zlangan samarani beradi. Pedagogik ta'limot g'oyalariga ko'ra amaliy ko'nikma va malakalar bevosita mashqlantirish, ya'ni muayyan faoliyatni amalda bevosita bajarish orqali shakllanadi. «Ustoz-shogird» an'anasi esa talaba-yoshlarda bevosita ishlash, ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish, mavjud iqtidorlarining yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan ahamiyatlidir. Bu kabi holatlar yoshlarni nafaqat mehnat va ishlab chiqarish faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashish, balki o'zgarar mehnatini qadrlash, halol mehnat qilish, mehnat samaradorligidan g'ururlanish kabi ma'naviy-ahloqiy sifatlarni ham tarbiyalaydi. Farzand tarbiyasida sharqona, qadimiy ajdodlar urf-odatlarini, an'analari, ahloq-odob qoidalariga amal qilishda xalqimizning milliy tarbiya tizimidan unumli foydalanishga alohida e'tibor berish va bu borada ustozlar o'z kuchi, aql-zakovotini ayamasliklari lozim. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, hozirgi davrda kelajak avlodning vatan ravnaqi sari ishonch bilan ongi rivojlanib borishida ularning ma'naviyati, milliy o'zligini anglab borishi kechiktirib bo'lmaz vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. O'tmish madaniy, milliy meros va an'alar yoshlar tarbiyasi uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu borada ta'lim muassasalarida milliy tarbiyani samarali tashkil etishda «Ustoz-shogird» an'analari muhim sanaladi.

Ustoz va muallimlar hurmati haqida shu choqqacha ko'p va xo'p gapirib kelinayotgan bo'lsa-da, bu mavzu hamon o'z ahamiyati va dolzarbligini yo'qotmayotgan muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda va dunyo turguncha shunday davom etadi. Ustoz bo'lishdek saodatga erishish uchun ko'p murakkab yo'llarni bosib o'tish, ancha to'siqlarni ortda qoldirgan bo'lish lozim. Haqiqiy ustoz bo'lishdan oldin katta harf bilan yoziladigan **INSON** bo'lish talab qilinadi. Ustoz deganda, faqat diniy bilimlarni ta'lim bergan kishilar emas, balki har qanday foydali ilm o'rgatuvchi shaxs nazarda tutilishini unutmazlik lozim. Chunki, muqaddas dinimizda ilmlar diniy yoki dunyoviyga ajratilmaydi. Balki, foydali va foydasizga taqsimlanadi. Haqiqiy ustoz – sohili yo'q ummonga o'xshaydi. Undan cheksiz xazina va boyliklarni topish mumkin. Ustoz bo'lish uchun odam eng avvalo, o'zini tarbiyalashi lozim. Shu tufayli har qanday ustoz o'z ishini o'ziga ustozlik qilishdan boshlashi kerak.

Demak **“Ustoz otangdan ulug‘”** yoxud **“Ustoz otangdek ulug‘”** bu ikki mazmun anglatuvchi bir maqolga yozuvchi Tohir Malik qalamiga mansub ma'naviyat va tarbiya masalalariga bag'ishlangan **“Odamiylik mulki”** (Axloq kitobi) risolasidan izoh izladik. Ustozlarning mavqei haqida gap ketganda ayrimlar bu maqolni **“Ustoz otangdan ulug‘”** tarzida, boshqalar esa **“Ustoz otangdek ulug‘”** shaklida bayon qiladilar. Farzand uchun odamlar orasida otaning mavqeidan baland zot yo'q. Lekin ota o'rnida ko'rib hurmat qiladiganlar bor. Demak ustoz **otadek** ulug' ekan. Lekin masalaning boshqa tomoni ham bor: ota farzandini boqishga, tarbiya qilishga majbur. Lekin ustoz aynan shu farzandga ilm berishga majbur emas. Agar **“bu bolani o'qitmayman”**, desa aybli sanalmaydi. Shu bois ham uning otaga nisbatan ulug'ligi mavjud. Hazrati Ali (r.a.) **“Menga bir harf o'rgatgan kishining xizmatkori bo'lishga tayyorman”**, deganlar.

Otadek (yoki otadan) ulug' ustozlar ko'p. Ammo bu nomga isnod keltiradiganlari ham bor. Ustoz ulug'lik martabasiga yetishish uchun ilmni xolis o'rgatishi kerak. Tamagirlik xastaligi bilan og'rikan ustoz hurmatga loyiq emas. Agar shogird to'xtovsiz berib turgan **“sovg'a salomlar”**i tufayli ilm olayotgan bo'lsa, demak u xato yo'lda. Chunki bu yo'lda faqat yuzaki ilm olish mumkin. Ustoz shogirdiga faqat ilm emas, yaxshi xulqlarni ham berishi kerak. Tamagir ustozdan shogird qanday yaxshi xulqni o'rganishi mumkin? Shuning uchun ham **“Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin”** deydilar.

Yurtboshimiz aytganlaridek, **bugungi kun o'qituvchisi universal mutaxassis, ham o'rgatuvchi, ham o'rganuvchi bo'lishi**, ya'ni o'z ustida tinimsiz ishlashi, doimo izlanib yashashi kerak. **Eng muhimi, o'qituvchi chinakam vatanparvar inson bo'lishi zarur.** Qalbida o'z kasbiga, Vataniga mehr va sadoqat kuchli bo'lgan o'qituvchigina haqiqiy vatanparvar shaxsni tarbiyalay oladi.

Darhaqiqat, ustozlar butun umrini shogirdlari tarbiyasi, kamol topishi yo'liga bag'ishlashi, shogirdlarining yutuqlaridan quvonib, kamchiliklaridan kuyunib, beminnat ilm, tarbiya bermog'i, zimmasidagi yukni, mas'uliyatni chuqur his qilgan holda mehnat qilmog'i lozim.

Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon tsivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy tsivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning, ustozlarimizning xizmatlari beqiyos. Shunday ekan buyuk ajdodlarimizga munosib avlod, ustozlarimizga loyiq shogird bo'lmog'imiz lozim.

Ustoz degan muborak nomga loyiq bo'lish xar qanday insonning qo'lidan kelmaydi. Buning uchun o'z kasbini va xalq farzandlarini seva olish kerak.

**Ustozlar so'zi va ibrati biz uchun g'oyat qadrlidir.** Ustoz, tarbiya va ta'lim, shubhasiz, kelajak poydevori. Xalqimiz qadim-qadimdan ustozga hurmat-ehtiromlar ko'rsatgan. Bu esa farzandlar kamolida o'z ifodasini topgan. Ustoz-shogirdlik an'anasi borasida hazrat Alisher Navoiy ibrati beqiyosdir. Ustoz-shogirdlik an'anasi ota-farzandlik darajasiga ko'tarilganki, xalqimizning: **“Ustoz**



otangdek ulug‘”, degan iborasi o‘sha davrlarda ildiz yoygan bo‘lsa kerak. Alisher Navoiyning buyuk alloma sifatida shakllanishida, avvalo, otasi G‘iyosiddin kichkinaning mehnatlari katta. Shuningdek, Sulton Abulqosim Bobur, Said Hasan Ardasher, Sulton Husayn Boyqaro, Abdurahmon Jomiy bilan ustoz-shogirdlik, ota-bolalik, do‘stlik aloqalarini ta’kidlash joiz. Ayniqsa, Jomiy va Navoiy munosabatlari tahsinga sazovor. Navoiy yashagan muhit, uning atrofidagi homiylar, ustozlar va do‘stlar ulug‘ shoirni yaratdilar. Bu yuksak namunadir. Alisherni to‘rt yoshidan boshlab maktabga berganlaridan ota-onasining farzandga nechog‘li e’tibor qaratishganini anglab olish mumkin. U olti yoshida Qur’onni o‘rgangan, bolalik yillaridayoq mashhur “Qushlar mantiqi” dostonini yod olgan. Qarang, Qur’on arab tilida, “Mantiq ut-tayr” dostoni fors tilida bitilgan. Demak, unga bolalikdan, balki oiladayoq ona tilidan tashqari arab va fors tilini chuqur o‘rgata boshlaganlar. Ayniqsa, G‘iyosiddin kichkina oilasidagi ijodiy muhit, bu xonadonga shoir, san’atkor, ma’rifatli kishilarning tashriflari, nafislar majlisi yosh Alisherda nazmga muhabbat uyg‘otgan. Bu suhbatlar xuddi dars kabidir. Maktab sabog‘ining ilk yillarida tasavvuf ilmida g‘oyat bilimdonligi bilan mashhur bo‘lgan, G‘iyosiddin kichkina xonadoniga tez-tez kelib turadigan Hofiz Ali Jomiydan qiroat darsini oladiki, shu jarayonda g‘azal o‘qish san’atini egallaydi. Shuningdek, Sabzavorda yashaganlarida otasining doimiy suhbatdoshlari – Xoja Yusuf Burxondan musiqiy ilmni, Darvesh Mansur Sabzavoriydan esa Chinorli madrasasida aruz ilmni o‘rganadi. To‘rt yoshidan tahsil olishni boshlagan Alisher butun umri davomida o‘qish, izlanish bilan yashadi. Ayni vaqtda o‘zi ham ko‘plab shogirdlar yetishtirdi. Abulqosim Bobur va otasining vafotidan so‘ng 15-16 yoshda g‘azallari bilan elga mashhur bo‘lgan Alisher Navoiy Sayyid Hasan Ardasher bilan tanishdi. Qirq yoshlardagi bu insonning otasi Boysung‘ur sulton davridan boshlab saroy xizmatida yurgan, ham shoir, ham olim, ham davlat arbobi bo‘lib tanilgan edi. Sayyid Hasan Ardasher odob, ilm bobida komil bo‘lsa-da, yig‘inlarda kam so‘zlar, andishali zot bo‘lgan ekan. Bu haqida Alisher Navoiy “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” nasriy asarida shunday yozadi: “Ammo adab va hilm va tavozu’ va hayo zotlarig‘a aningdek — g‘olib ermishkim, bu mujmal mazkur bo‘lg‘on fazoyildinki, tafsili: sarf va nahv va lug‘at va arabiyat va mantiq va kalom va fiqh va hadis va tafsirdur va soyir tasnifot, misli: she’r va muammo va ta’rix va nujum va advor va musiqiy bo‘lg‘ay agar ba’zi majolisda so‘z o‘tsa erkandur, bovujud ulki, majlis ahlining ko‘pidin yaxshiroq bilur erkandurlar ham hayo va adab jihatidin, ham birovga, ilzom-u xijolat yetmasun deb, ko‘p so‘z aytmas ermishlar, balki ko‘p majolisda takallum ham qilmas ermishlar”.

Sayyid Hasan bilan Alisher Navoiy dunyoqarashi, she’riyatga munosabatiga ko‘ra bir-biriga hamohang kishilar bo‘lib chiqdilar. Garchi ularning yoshlarida ancha farq bo‘lsa-da, mushohadalari mushtarak edi. Ularni chin do‘stlik, ma’lum darajada ustoz-shogirdlik, ota-bolalik tuyg‘ulari bog‘lab turar va buni Navoiy qalbdan his etadi: “Va bu faqirni faqr tariqig‘a dalolat va irshod qilurlar erdi va nazm ayturg‘a targ‘ib ko‘rguzurlar erdi”.

Navoiy Samarqandda yashab turganida Sayyid Hasanga, Hirotga yo‘llangan “Hasbi hol” she’riy maktubida “Janobingga shogird-u farzand men”, deb ustozini ulug‘lagan edi.

Samarqandda mashhur mudarris Xo‘ja Jaloliddin Fazlulloh Abu Lays qo‘lida ta‘lim oldi. Bu muborak zotning ota-bobolari ham Samarqandda mashhur olim va fozil kishilar bo‘lgan. Xo‘ja Jaloliddinga mudarrislik fatvosini yozib bergan Said Sharif rahbarligida ham tahsili ulum qildi.

Navoiy 1469-yilda Samarqanddan Hirotga qaytgach, Abdurahmon Jomiy bilan yaqindan tanishadi. Bu vaqtda Jomiy ko‘p bilimlarni o‘rganib, ilm va badiiy ijodda ulkan yutuqlarga erishgan, ustoz Sa‘diddin Koshg‘ariy maqbarasida yashar, Hirotning ko‘p fozillari bu yerga Jomiyni ziyorat qilgani kelishardi. Ajabki, ular orasidagi yosh farqi katta. Alisher tug‘ilgan yili Abdurahmon Jomiy 27 yoshli yigit bo‘lsa, Navoiy shoir sifatida tanilganida Jomiy o‘z davrining mashhur mutafakkiri sifatida dong taratgan mo‘ysafid edi. Navoiy Jomiyni ta‘riflab ko‘p she‘rlar bitgan, uni o‘zining eng yaqin do‘sti, ustoz, maslahatgo‘yi sifatida Mahdumi Nuran (Nurli mahdum) deb ulug‘lagan. Abdurahmon Jomiyning do‘stligi, mehr-oqibati, o‘ziga nihoyatda g‘amxo‘r ekanini ta‘riflab yozadi: “Bu nav’ sohib davlati buzurgvor va bu yanglig‘ sohib kamoli nubuvvat kirdor bu xoksori parishon ro‘zgorni azim iltifotlari bila sarbaland va g‘arib navozishlari bila arjumand qilib, abnoyi jinsim aro sarfarozi, balki jinsi bashardin mumtoz qilur erdilar”.

Jomiy bilan Navoiyni do‘stlashtirgan narsa faqat ularning katta falsafiy masalalardagi hamfikrligi, jamiyat va tabiat hodisalarini bir xil talqin etishlaridagina emas, balki kishilarga munosabatlari, dunyoqarashlari, xullas, insoniy fazilatlarini ham deyarli bir xilligida edi.

Jomiyning vafotidan so‘ng Navoiy ustoz shoir va mutafakkir xotirasiga bag‘ishlab “Xamsat ul-mutahayyirin” asarini yozdi. Jomiyning ijodi va hayot yo‘lini izohlab, ota-bobolarining kimligini, Jom viloyatida tug‘ilgani, bilimni boyitish uchun Hirotga kelgani, bitar ekan, u kishining suhbatiga hamma intiq bo‘lib, shoir, olim, fozillar qatori oddiy odamlar ham u kishining ziyoratiga oshiqardi, men ham o‘shalarning orasida bo‘lardim, deydi Alisher Navoiy.

Sulton Husayn davrida Hirotga qaytgandan keyin ikki alloma o‘rtasida boshlangan muloqotlar bir umr davom etdi. Agar Jomiy bo‘lmaganda Navoiy, Navoiy bo‘lmaganda Jomiy bu qadar yuksak darajaga erishmas edi. Bir-biriga suyangan, bir-biridan hamisha ruhlanganliklari, do‘stlik-hamkorliklari “Xamsat ul-mutahayyirin”da juda ko‘p misollar bilan izohlangan.

*Iki pil o‘lsa Xusrav yo Nizomi,  
Erur yuz pil chog‘lig‘ pil Jomiy.*

Kitob uch bo‘limdan iborat bo‘lib, avvalida ikki o‘rtada bo‘lib o‘tgan suhbat va voqealar haqida so‘z boradi. Ikkinchi bo‘limida ular o‘rtasidagi yozishmalar bor. Uchinchi qismida Jomiy asarlari ko‘rsatilgan. Har ikkovlari buyuk Hirot madaniyatini yaratishdi.

*Yorab, bu maoniy durrining ummoni,  
Bu donishu fazl gavharining koni  
Kim, aylading oni olam ahli joni,  
Olam eliga bu jonni tut arzoniy.*

*Haq yo‘lida kim sanga bir harf o‘qitmish ranj ila  
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin ming ganj ila.  
Alisher Navoiy.*

Hazrat Navoiydan keltirilgan bu yerdagi soʻzlarda hech mubolagʻa yoʻq. Darhaqiqat, ustozlarimizning haqlari beqiyos. Ular maʼnaviyat bogʻining bogʻbonlaridirlar. Dunyo ularning mehnatlari evaziga oboddir. Ularning qalblari taratgan ziyo tufayli insonlarning maʼnaviy dunyosi yorugʻ va ravshan. Binobarin, biz ularni qancha koʻp ulugʻlasak, eʼzozlasak, shuncha oz. Inson kim boʻlishidan qatʼiy nazar, qaysi soha vakili boʻlmasin, u bilim olish uchun ustozga muhtoj.

*Agar shogird shayxulislom, agar qozidur,*

*Agar ustoz andin rozi – Tangri rozidur”, – deganlar Alisher Navoiy hazratlari.*

Shoh-u gado, yaxshi-yu yomon, bari bir, qachonlardir muallim saboqlaridan bahra olgan.

Yurtimiz istiqloлга erishgach, xalqimizning shaʼni va shuuri oʻz oʻrniga qaytdi. Ayniqsa, taʼlim-tarbiya sohasida ham juda katta ijobiy siljishlarga erishildi. Koʻplab ilm dargohlari taʼmirlandi va ularning qatoriga yangilari qurib bitkazilib, xalqimiz farzandlariga yuksak darajada bilim olishlari uchun taqdim qilindi. Shular qatorida bugun biz soʻz yuritgan bobomeros qadriyat – ustoz-shogirdlik anʼanalarini yangi sharoitda, yangi mazmunda hayotga tatbiq etish imkoniyatlari yuzaga keldi. Bugun maktab, kollej va oliy oʻquv yurtlarida oʻqiyotgan yoshlarimiz oʻz muallimlariga “ustoz” deb murojaat qilishi urfga kirdi. Bu – yaxshilik alomati. Zero, tilda qayta-qayta takrorlangan kalom vaqti kelib, qalbgga muhrlanadi. Mustaqillikka erishish jarayonidayoq ilm sohasida ijod va mehnat qilib turgan kishilarning ijtimoiy hayot tarzlariga katta eʼtibor qaratildi. Chunki kelajak avlodning taqdiri aynan yuksak darajadagi ana shunday ziyoli kishilar qoʻlida boʻladi. Ular berayotgan taʼlim-tarbiyaning yurt farzandlarigagina emas, balki butun jamiyatga manfaati beqiyosdir. Bu azizlarning sayʼ-xarakatlari eʼzozlanib, yilning 1-oktabr sanasi davlatimiz tomonidan “Ustoz va murabbiylar” kuni deb atalib, ularning mehnatlarini qadrlash maqsadida bu kun rasmiy ravishda “dam olish kuni” deb eʼlon qilindi. Ushbu kunda yurtimizning barcha oʻquv maskanlarida taʼlim-tarbiya berayotgan ustoz va murabbiylarni bayram bilan tabriklab, mehnatlarini eslab, ularga tashakkurlar bildirish odat tusiga aylangan.

*Deydilar, dunyoda asli kim Aziz,*

*Aytdilar ustozdir, ustoz begumon.*

*Soʻng aytdilarki, Aziz shubhasiz,*

*Ustozlar qadriga yetolgan inson.*

Insonning inson boʻlib kamol topishida, unga bilim va odamiylik, mehr-oqibat, ezgu orzu-niyatlar bilan yashash tuygʻularini singdirishda, bir soʻz bilan aytganda, jamiyatimizning munosib fuqarosi boʻlib hayotga kirishi va mustahkam oʻrin olishida oʻqituvchi va murabbiylarning, barcha taʼlim sohasi fidoyilarining hissasi beqiyosdir.

Hazrat qozi Imom Faxriddin al-Arsobandiy Marv viloyatida barcha imomlarning raisi edilar. Marvning sultoni bu zotni gʻoyatda hurmatlar edi. U zot “Faqatgina ustozimning duolari sharofati bilan bu mansabga erishdim. Hurmatlarini oʻrinlatishga harakat qildim. Hazrat ustozim qozi Imom Abu Yazid ad-Dabbusiy (a.r.)ning xizmatlarida qush misoli uchar edim. Kiyimlarini yuvib, poyabzallarini tozalab, taomlarini hozirlar, ustozim ovqatlanib boʻlgunlari-cha, oʻzim tanovul qilmas edim, - deb koʻp bor takrorlardilar.

Horun ar-Rashid oʻgʻillarini imom Asmoiy (r.a) huzurlariga ilm va odob oʻrganmogʻi uchun yubordi. Bir kuni ustoz hazratlarining tahorat olayotganlarini koʻrib

qoladilar. O'g'illari esa oyoqlariga suv quyari edi. Shunda xalifa hazratlari imom Asmoyni urishib malomat qildilar.

- Men sizning huzuringizga o'g'limni ilm va odob o'rgansin deb jo'natgan edim, shunday ekan nima uchun bir qo'li bilan suv quyib, boshqasi bilan oyog'ingizni yuvishni buyurmaysiz?! - dedilar.

Demak, ustoz hurmatiga rioya qilmoq, xizmatlariga qoim bo'lmoq, uning ko'nglida muhabbat va rizoligini topish har bir talabaniing hayotiy vazifasiga aylanmog'i kerak ekan. Bu esa, ilmidan o'zi ham, boshqalar ham manfaat topishiga asosiy omillardan biridir. Tolib bu yuksak burchni ixlos va samimiyat bilan yondoshgandagina, samarasidan bahra olishga erishadi.

Muxtasar qilib aytganda, ustoz va murabbiylarning jamiyat taraqqiyotidagi mehnatlari beqiyosdir. Ularning mehnatlari natijasidan bahramand bo'lgan biz shogirdlarga ular qilgan duolar ijobat bo'laversin.

### Ustozlar

Aytsam, bahor yashar ekan kuz uchun,  
Yashayapmiz boldek shirin so'z uchun,  
Navoiy ham otdan tushgan siz uchun,  
Millatimiz qarog'i siz, Ustozlar,  
Ma'rifatning chirog'i siz, Ustozlar!

Qimtinib, o'ylanib yashabsiz bilsam,  
Ertam, deb, o'ylanib yashabsiz bilsam,  
Bir umr bizni deb yashabsiz bilsam,  
Millatimiz qarog'i siz, Ustozlar,  
Ma'rifatning chirog'i siz, Ustozlar!